

IJODKOR DOSTONLARIDA MUROJAAT BIRLIKLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6549878>

Adizova Nilufar Istamovna

*Buxoro davlat universiteti, O'zbek
tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya (АННОТАЦИЯ / Abstract) *Ushbu maqolada o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov dostonlariga da'vatkorlik ruhini singdirgan, shoir tilida har bir fikrning nido bo'lib jaranglashi asosida uning ijodiga o'zgacha ruh baxsh etgan murojaat shakllari haqida so'z boradi. Unda aks etgan lirik qahramon kechinmalari murojaat shakllari ta'sir kuchi bilan o'quvchini butkul rom etadi. Shoirning murojaat shaklida aks etgan har bir fikri barcha uchun ertangi kunga umidbaxsh chorlov, da'vat bo'lib yangraydi.*

Kalit so'zlar: *murojaat birliklari, leksema, baho xarakteristikasi ottenkasi, uslubiy neytral murojaat birliklari, intim kechinmalar, appelyativ ma'no, xitob, badiiy mahorat, tasvir usuli, yangi ifodalar.*

Kirish (Ведение / Introduction) Barcha badiiy ijod mahsullari kabi poetik matnda ham har bir til hodisasi o'zining muhim o'rniga ega bo'lib, ularni ifoda etishda shoirning o'ziga xos tasvir usuli, tilining ravonligi, tasavvur imkoniyatlarining kengligi namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining sevimli shoiri, XX asr o'zbek she'riyatini yuqori pog'onaga ko'tara olgan ijodkor Erkin Vohidov til birliklaridan foydalanishga usta naqqoshdek yondoshgan. Chinakam iste'dod sohibi har qanday vositani asarlari bag'riga betakror naqqoshdek muhrlaydi, uzukka bezak beruvchi ko'zdek munosib joylay oladi. Tildagi har bir hodisa usta san'atkor ijodidagina yarq etib, ko'zga tashlanadi. Erkin Vohidov ko'zni quvnatadigan, dilni yayratadigan, ohori to'kilmagan go'zal ifodalar, tasvirlar orqali dostonlari jozibasini oshirishga erisha olgan xuddi shunday so'z ustasidir. Jumladan, ilmiy tilda undalma yoki murojaat birliklari deb yuritiluvchi til birligi ham ijodkorning stilistik maqsadlarini yuzaga chiqarish, asar qimmatini yanada oshirishning muhim omili sifatida shoir mahoratini yaqqol namoyon eta olgan til birligidir.

Ular og'zaki nutq jarayonida keng qo'llaniladigan kommunikativ nutq vositasi bo'lib, o'zaro aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladi hamda so'zlovchining biror shaxs yoki predmet diqqatini jalb etish, undash, chorchash kabi maqsadlarini amalga oshiradi. Mumtoz badiiyat ilmida murojaat birliklari nido va iltifot san'ati doirasida o'rganiladi. Zamonaviy badiiy adabiyotda esa murojaat shakllari emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi, personajlar nutqini individuallashtiruvchi, baho xarakteristikasi ottenkasi bilan namoyon bo'luvchi stilistik vosita sifatida ijodkor mahoratini belgilashning muhim omillaridan biri sanaladi.

МЕТОДОЛОГИЯ (МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW)

Murojaat birliklarini baho xarakteristikasi ottenkasini ifodalashi jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) Uslubiy neytral murojaat birliklari.
- 2) Baho xarakteristikasini ifodalovchi murojaat shakllari.

Uslubiy neytral murojaat birliklarda baho ifoda xarakteri neytral bo'lib, asosan, appelyativ (xitob va murojaat qilish) ma'no yetakchilik qiladi. Ular xitob yoki murojaat orqali diqqat qaratishga, muloqotni boshlashga xizmat qiladi. Masalan:

Kelinglar, og'aynilar! Bir diydor ko'rishaylik. (murojaat qilish mazmunini ifodalagan).

Baho xarakteristikasini ifodalovchi murojaat shakllari esa emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lib, nutq sohibining xarakter jihatlarini, hissiyotlarini hamda tinglovchiga sub'yektiv munosabatini ifoda etadi:

Dadajon! Sizga o'q tegmasin hecham, Menuchun ham tezroq qayting salomat, Buvim aytgan, Agar men tilak qilsam Tilagim bo'larmish doim ijobat. ("Nido", 37)

Murojaat shakllari ilmiy uslubdan tashqari barcha nutq uslublarida uchraydi. Ular o'zi bilan birga kelgan gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmasa-da, mazmunan juda yaqin aloqada bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Murojaat shakllari badiiy adabiyotda juda keng qo'llanilib, voqelikning obrazli, ta'sirchan bo'lishini, emotsionallikning oshishini ta'minlaydi. Undan barcha so'z ustalari qahramonlarning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini ifoda etish, his-kechinmalari, sub'yektiv munosabatlarini aks ettirish uchun foydalanadilar. Ayniqsa, teran va falsafiy mushohadaga boyligi, ifoda uslubining sodda hamda tiniqligi, intim kechinmalarni ochib berish, obrazlar tanlashdagi mahorati bilan o'zbek adabiyotida o'zining munosib o'rniga ega badiiy ijod sohibi, xalqimizning ardoqli shoiri Erkin Vohidov ijodida murojaat shakllari kuchli emotsionallik hamda ta'sirchanlik vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Buni muallif dostonlari misolida ham ko'rib chiqish mumkin.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Shoirning "Nido" dostoni voqealari boshdan oxirigacha chaqiriq, da'vat, nido poetik usulida bayon etilgan bo'lib, murojaat shakllari dostonga beqiyos ta'sirchanlik, qahramon holatiga o'quvchining xayrixohligini uyg'otishga hissa qo'shgan. Poetik nutqda murojaat shakllari gap boshida kelganda kuchli emotsiya ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi va unda shaxs yoki predmetga qarata chaqiriq, chorlash yoki da'vat ruhi ustuvorlik qiladi. Kuchli his-hayajon bilan ifodalangan murojaat shakllaridan keyin undov belgisi qo'yiladi. Gap oxirida qo'llanganda esa hissiy kechinmalar yanada teranroq aks etsa-da, kitobxon e'tibori muayyan shaxsga emas, avvalo, voqelikka jalb etilishi yaqqolroq ko'zga tashlanadi:

O'g'lim! Vujudimni chulg'ar alanga, Bo'g'zimga tiqilar hayajon.-Mana men, o'g'lingiz. Dardli olamga Sizdan tanho yodgor, So'ylang, otajon! Otajon! Men axir qutlug' bu so'zni Yigirma yil olmadim tilga, Yigirma yil saqladim dilda. Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni, So'ylang, eshitaman. Vujudim tilka, Yuragimni yoqar o'tli iztirob, Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q. Bag'rim o'yib, Bu kun menga bermoqda azob Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q. Silqib oqayotir Ko'kragimdan qon. Qalbim o'rtanmoqda, so'ngsiz armonim Yurak qonim bilan bitgan dostonim Sizga bag'ishladim, Otajon! ("Nido", 28).

Uzoq o'lkalarda Qon kechib hozir Otang hayot uchun jang qilayotir. Sen uxla, yolg'izim. Sen uxla, qo'zim, Bir nafas orom ol, Ko'zlaringni yum. ("Nido" 31) Ana, ko'ryapsanmi? Mening dadamlar! Dada!!! Ovozim chiqmaydi biroq, Yuguraman-ortga ketar qadamlar, Yig'layman-ko'zimga kelmaydi namlar. Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq! ("Nido", 29) Do'stim, Shu yuksakdan atrofga bir boq, Naqadar poyonsiz bu munis bag'ir. Ufqlar ortida kengliklar yiroq... Bularning hammasi bizniki axir. ("Q. maskani" 22)

O'quvchim, ma'zur tut, yana qaytadan U mushkul damlarga nazar tashlasam, Shuncha vaqt so'nggida bu kun dafatan Toshkent dostonini O'shdan boshlasam. ("Toshkent sadosi").

Singlim, u seniki-naqdinang ketgan, Senikidir ona sutidek halol. Kel beminnat o'zbek otang qo'lidan Endi o'z shahringni qabul qilib ol. ("Tosh.sados.") Yo'q, hech ishonmayman, Ishongim kelmas, Hali bor ko'ksimda umid uchquni, Doktor, Mana mening yuragim, oling Va lekin hayotga qaytaring uni. ("Palatkada yozilgan doston", 105) Bu tashvishli dunyo, Sermashaqqat olam Bizning yelkamizda qoldi-ku, do'stim! Uni bo'ronlardan, Quyoshli yo'llardan Nurli istiqbolga olib o'tamiz. ("Nido", 45)

Odamlar, zaminni asrang, bir xato Yorug' bu olamning bo'lgay adosi. Bizni chorlamoda muqaddas sado, Bu ikki ming yillik Toshkent sadosi. ("Tosh.sadosi")

Murojaat shakllarini shoir jonli va jonsiz predmetlarga qarata ham qo'llaydi va shu orqali voqelikning emotsionalligi hamda ekspressivligini yanada oshirib tasvirlaydi. Ular uyushgan yoki takror holda qo'llanganda esa qo'shimcha ma'no ottenkalari kuchayadi, qahramon ruhiyatida kechayotgan his-hayajon va izzitroblar kuchliroq, ta'sirliroq aks ettiriladi:

Qalam! Ehtiromim, olqishim senga, Tanho kechalarda ey tanho ulfat. Olam yukin ortdim nozik belingga, Yo'limiz olisdur, Toliqma faqat. Hech kimga ochmagan ko'nglimni tanho Senga ochgan edim, sirdosh, qadrdon. Yodingdami, Bir qiz etganda shaydo Yozgandik ishq xatin birga ikkovlon. ("Quyosh maskani", 13)

Dengiz, Sonsiz ertaklaringdan Bittasini so'ylading menga. Ko'z-ko'z etar Tong malohatin, Ko'tarilar dengizdan quyosh. Men o'ylayman, Oshiq qismatin-O'z baxtingga qilaman qiyos. Olib ketdi o'tmishni zamon, Unut bo'ldi elning faryodi. ("Orzu chashmasi", 144)

Diyorim, Sen bilan iftixor qildim, Barcha shavq-u otash shu bois menda. Shuningchun so'rsalar: -Ilk ustozing kim? Senga she'r asrorin kim etdi oshkor?

Deyman: -Qalam berdi muqaddas yurtim, Vatan mehri etdi meni she'rga yor.

("Quyosh maskani", 15)

Zamin, tasavvur qil, borliqda tanho Barhayot yulduzlar, balqib turibdi. Bu zamon u borliq va yo'qlik aro Simob qatrasidek qalqib turibdi. ("Tosh. sadosi")

Yo'limni yoritdi Shu ikki mayoq, Dilimni hamisha to'ldirdi nurga. Qalb! Senga ishondim yo'l boshidayoq, O'zing rahnamo bo'l butun umrga. ("Quyosh maskani", 14)

Men bu qush qanoti yetmas yuksakdan Tengsiz jamolingga boqib to'ymayman. Kim edim, kim bo'ldim deyman, o'ylayman. Shahrim, Bir o'g'lingdek men ham yurakdan Umrin sarhisobin senga so'ylayman. ("Quyosh maskani", 10) Yashil archam, jon archajonim. Holim qanday bayon etayin? Qo'yib yubor, kerakmas jonim. Parcha-parcha bo'lib ketayin. ("Baxmal", 58) Bahor, Bahor, bormisan omon? Yo'qotgandik biz seni beiz. Qurbon bo'ldi u tun necha jon, Dahshatni sen eslaysanmi, qiz? Qishloq yondi, bir uying emas, Olam go'yo bo'ldi jahannam. ("Baxmal", 62) Qadamlar! Qadamlar, Og'ir qadamlar Etiklar zarbidan titraydi tuproq. Qayerga ketmoqda shuncha odamlar? Nahotki yo'llari shunchalar yiroq! ("Nido", 28) Qora dengiz, To'lqinli dengiz, Etagingga tutashgan osmon. Cho'kib yotar ostingda cheksiz Afsona-yu ertak va doston. Ne oshiqlar sevgisi bilan Yuragini ko'mganlar senga. ("Orzu chashmasi", 124)

Dilorom, Dilorom, Jajji singilcham, Do'mboq yuzlaringni qildim tasavvur. Munisam, Kattakon madading uchun Bosh egib aytaman senga tashakkur. ("Palatkada yozilgan doston", 116)

Zilol chasman, O'ynoqi chashmam, Ayt, ne bo'ldi men yozgan maktub? Yuraklarim qon bo'ldi kutib. Qaylardadir Men kutgan odam? ("Orzu chashmasi")

Diplomat: Uzr. Mojaroning vaqti emas. Biz katta mojaroni bartaraf qilish uchun bu dargohga keldik. Qani, marhamat, o'rtoq general, hurmatli rektor, mehmonlar, rejani gaplashib olaylik. Fikratjon, qani beri keeling, siz ham o'tiring. ("Taxt va baxt" 140)

Tog'li qishloq, So'lim tabiat. Qamashtirar ko'zni jamoli. Lekin og'ir edi u fursat, Kezib yurar edi sershiddat O'ttizinchi yillar shamoli. ("Baxmal", 56) Murojaat birliklari undov so'zlar bilan birga qo'llanganda emotsional ma'no kuchli aks etadi, murojaat shaklida ham ko'tarinkilik, achinish, hamdardlik, da'vat kabi ma'nolar yaqqol ko'zga tashlanadi: Ey sen, buyuk shahar, Muzaffar poytaxt! Shohi jahonlarni tuproqqa qording. Ammo menga yasab shunday yuksak taxt Jahon shohi qilib boshga ko'tarding. ("Quyosh maskani", 10) Go'zal Orzu, O, suluv pari, Nega kelding chashma yoniga?! Bilmasmiding, Makkor ko'zlarning Qasd qilganin shirin joningga?! ("Orzu chashmasi", 138)

Oh, Orzu qiz, Oh, go'zal sanam. Oh, tog'larning erka ohusi. Bandi bo'lding Yorga yetgan dam, xazon bo'ldi qalbing orzusi. ("Orzu chashmasi", 141)

Yana o'zing kerak bo'lding, Kel, ey qalamim. Sensiz menga yashamoqning O'zi yot ekan, Kel, ey uzoq kechalarda Yolg'iz hamdamim... ("Orzu chashm.", 124)

Ey shoir, barmog'ing bukib sanab boq, She'riy hayajoning kelmasin ustun.

O'shanda o'n bir yosh bo'lgan qizaloq Oydek to'lib turgan ayoldir bukun. ("Toshkent sadosi"). Asriy g'aflat yetar endi, Ey, mazlum inson! Uyg'onmoqning vaqti keldi,

Ko'targil isyon! Bosh ko'targil, Ming yil to'kkan Ko'z during haqi. Qo'zg'al, Asriy qullik bukkan G'ururing haqi. Qo'zg'al, Buyuk Tojmahalning Shukuhi uchun. Qo'zg'al, Ulug' bobolarning pok ruhi uchun. ("Ruhlar isyoni", 52) O, bola yuragi, beg'ubor dunyo, Borliqqa mehri teng, bamisli oftob. Biz olam hikmatni bilsak ham goho Bola savoliga topmaymiz javob. ("Tosh.sadosi") Sharqaviy: Ey ahli mashvarat, qavm sardorlari, viloyat sultonlari, arkoni davlat, tinglang! Men sadrul mashvarat burchini ado etib, sizlarning istak va irodangiz bilan muhtaram shahzoda Said Fikratxon ibn Said Ozodxon ibn Said Muzaffarxon Zako hazratlarini Jabaliya podshohi deb e'lon qilaman! ("Taxt va baxt", 146)

Murojaat shakllari izohlovchi birliklar bilan birga qo'llanganda fikr qaratilgan shaxs yoki predmet tasviri aniqroq ifoda etiladi va da'vat qilish, chorlash ma'nolari kuchaytiriladi:

Ona xalqim! Tarix yelkangga qo'ydi Million tonnalarning zaminday yukin. Ulug'layman Toki tanda jonim bor Manglayidan o'pgan o'lkani. Seni ulug'layman, Azamat diyori! Sahovat mahzani, Quyosh maskani. ("Quyosh maskani", 17)

Qardosh do'stim! Sen ham o'qirsan she'rim, Tilingga tarjima bo'lsa mabodo. Hozircha til topib olamiz, sherik, Biz uchun bu ortiq emas muammo. ("Quyosh maskani", 20)

Aziz she'rxon do'stim, bormi yodingda-O'n yetti yil avval bizlar ikkovlon Tahlikali aprel oltmish oltida Birga palatkada yozgandik doston. ("Toshkent sadosi")

Tengdoshim, Asrdosh birodar! Kel, bir on jim o'ygga cho'maylik. Bu yerda yotibdi fidolar. Kel, uni gullarga ko'maylik.

Tengdoshim, Asrdosh birodar! Uyg'oq bo'l, hushyor boq olamga. Bu yerni quchmasin alanga, Qabrida tinch yotsin fidolar. ("Nido", 43)

Murojaat birliklari gap o'rtasida kelganda diqqatni tortishdan ko'ra fikrga modal ma'noning qo'shilishi ko'proq aks etadi:

Kel, qardoshim, Ikkov bo'lib hamnafas, Mana shu qadahni ichaylik bu kun. Notiqlar so'ylagan "hamdo'stlik" emas, Bizning shu devona oshnalik uchun. ("Quyosh maskani", 21)

Yur, do'stim, ko'chaga chiqaylik endi, Yur anhor sollonib oqqan tomonga.

Tovus favvoralar ta'zimda turgan Niliy sarhovuzlik ulkan maydonga. ("Toshkent sadosi")

Sababin bilursan, o'shlik qizaloq, Zilzila kunlari ko'rsatib himmat,

Chiroylik husnixat bilan, bir varoq Maktub yozgan edi. Mana o'sha xat.. ("Tosh.")

Bormisan, Dilorom, qaydasan, kimsan, Balki olimasan, balki paxtakor? Ehtimolki sening o'sha xat yozgan Diloromdek shirin qizalog'ing bor. ("Toshkent sadosi")

Muftiy: Xush ko'rdik, muhtaram Naimjon Rasuliy, Sizni Ollohning panohiga topshirdik. Qalay, aziz mehmonlar, yurtimiz ob-havosiga ko'nikib qoldinglarmi?

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Shoir ijodida murakkab birikmali murojaat birliklari ham uchraydi. Ular asosida muallif iftixor qilish, faxrlanish kabi kuchli emotsional hamda jamlash ma'nolarini ifoda etadi. Ba'zan, muallif murojaat birliklarini tushirib qoldiradi va ularning vazifasini undan keyin qo'llangan so'zga, ko'pincha, fe'lga yuklaydi. Biroq matn mazmunidan uning o'rni anglashilib turadi. Bunday usul orqali shoir ta'kidlamoqchi bo'lgan fikrining umumga qaratilganini aks ettiradi:

Ey, dunyoga buyuk zotlarni bergan ko'hna va muqaddas tuproq! Ey buyuk Sohibqiron poytaxt qilgan tabarruk zamin! Olloh qudrati ila sen bizlarni tinchlik-omonlikka, fayz-u barakotga yetkazgaysan, omin! ("Taxt va baxt", B.136)

Jarchi: Ulug‘ shahzoda Said Fikratxon ibn Said Ozodxon, ibn Said Muzaffarxon Zako zoti oliylariga sallamno! (“Taxt va baxt”, B.145)

Yerni tepma, Asta bos qadam, Yetar uning chekkan ozori. Biz turgan Yer, Biz kezgan olam Ulkan kommunistlar mozori.

Kel, uni gullarga ko‘maylik Bu yerda baxt bo‘lsin, nur bo‘lsin, Bo‘lmasin qora tun zulmati. Bu yerda yuraklar hur bo‘lsin, Qaytmasin, u kunlar dahshati.

(“Nido”, 42)

Eshit, ingrayapti Ona-Yer Qo‘ltiqtayoqlarning zahmidan, Bu tuproq yuragi poradir Atom zontlarining vahmidan. Eshit, chorlayapti Ona-Yer, Ko‘ksida olovli oh-faryod. Asrdosh birodar! Qo‘lni ber, Kel, Yerga qilaylik qasamyod: Bo‘lurmiz gal kelsa har birimizga Tinchlik janggohining fidosi. Bu senga, bu menga, bu bizga Yigirmanchi asr nidosi. (“Nido”, 44)

Biz bunga bir emas, yuzlab va minglab Bog‘chalar quramiz, Qo‘rqma, yetadi. Sendek mehriboni bor ekan, demak, Toshkent jarohati bitib ketadi. (“Palatkada yozilgan doston”, 116)

Malohat: Qog‘oz yirtaverib qo‘lim og‘ridi. To‘xtat, yozma, dadam bilsa-o‘laman. (“Taxt va baxt”, 131).

General: Haddingizdan oshmang, men bugun buyruqni olib ketishim kerak. (“Taxt va baxt”, 151).

Erkin Vohidov dostonlari o‘zining ko‘tarinki ruhi, jozibador ohangi bilan o‘quvchini butkul rom etadi. Shoirning murojaat shaklida aks etgan har bir fikri barcha uchun ertangi kunga umidbaxsh chorlov, da‘vat bo‘lib jaranglaydi. Ular muallif badiiy maqsadini yuzaga chiqarish, asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarni o‘quvchi shuuriga joylash uchun eng muhim omilga aylangan birliklardan biridir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Badiiy asar emotsionalligi va ekspressivligini oshirishda har bir hodisaning stilistik ahamiyati katta. Biroq ular orasida, ayniqsa, murojaat birliklari badiiy, stilistik imkoniyati kengligi bilan ijodkor mahoratini yaqqol namoyon etadi. Asarga beqiyos joziba va mazmun baxsh etadi. Jumladan, E. Vohidov dostonlarida lirik qahramon tuyg‘ulari, kechinmalari va hissiyotlarini aks ettirishning beqiyos omili sifatida ifoda etilishi voqealarning ta‘sir kuchini yanada oshirishga hamda shoir individual uslubining ko‘zga tashlanishiga hissa qo‘shadi.

Erkin Vohidov dostonlarida qo‘llangan murojaat shakllari asarning ko‘tarinki, jozibador, ta‘sirli jaranglashi bilan o‘quvchini butkul rom etadi. Shoirning murojaat shaklida aks etgan har bir fikri barcha uchun ertangi kunga umidbaxsh chorlov, da‘vat bo‘lib jaranglaydi. Ular muallif badiiy maqsadini yuzaga chiqarish, asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarni o‘quvchi shuuriga joylash uchun eng muhim omilga aylangan birliklardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Вохидов Э. Достонлар. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1973.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2013.
3. Vohidov E. “Muhabbat”. G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent-1976.
4. Shukur Qurbon. “Ustoz saboqlari”. “Sharq” nashriyoti. Toshkent-2016.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin-2005, B.121.

6. AN Istamovna. Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida). Conferences, 2021.

7. Nilufar Istamovna Adizova ERKIN VOHIDOV DOSTONLARINING FONETIK-FONOLOGIK XUSUSIYATLARI // Academic research in educational sciences. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-vohidov-dostonlarining-fonetik-fonologik-xususiyaatlari> (дата обращения: 27.04.2022).

8. Adizova N. ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI // Журнал Горизонты Филологии. – 2021. – Т. 6. – №. 6.

9. Adizova Nilufar Istamovna ERKIN VOHIDOV-INSON KECHMISHLARINING MOHIR KUYCHISI // ORIENSS. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-vohidov-inson-kechmishlarining-mohir-kuychisi> (дата обращения: 27.04.2022).

10. Adizova Nilufar Istamovna. (2021). Eternal Life of Heroes of Uzbek and English Epics. Middle European Scientific Bulletin, 10. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.10.306>

11. Adizova N. I. POETIC WORKS AND RHETORICAL QUESTIONS (On the example of Erkin Vahidov's epic "Nido") // Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 168-175.

12. Adizova, N. (2021). Вечная жизнь героев узбекских и английских былин. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 2(2). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2719

Tojimatovich, Akbarov Anvar, and Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich. "Formation Of Science as A Value and Classification of Values." Texas Journal of Multidisciplinary Studies 3 (2021): 172-178.